SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 13-noyabr 374-8-118-Q/24 Uzun tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida” 2024-yil 5-avgustdagi O‘RQ-937-son Qonunining hamda Surxondaryo viloyati hokimining shu mazmundagi 2024-yil 8-noyabrdagi 731-8-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida” 2024-yil 5-avgustdagi O‘RQ-937-son Qonunining hamda Surxondaryo viloyati hokimining shu mazmundagi 2024-yil 8-noyabrdagi 731-8-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash va O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida” 2024-yil 5-avgustdagi O‘RQ-937-son Qonunining hamda Surxondaryo viloyati hokimining shu mazmundagi 2024-yil 8-noyabrdagi 731-8-0-Q/24-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish bilan bog‘liq masalalarni muvofiqlashtirib boruvchi tuman **ishchi guruhi tarkibi** 1-ilovaga muvofiq;

xatlov jarayonlari yakunlangan mahalla fuqarolar yig‘ini bo‘yicha rasmiylashtiriladigan dalolatnomalarni tasdiqlovchi namunaviy **ishchi guruhi tarkibi** 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Xasanov), O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi Uzun tumani bo‘limi (T.Kucharov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (I.Xoliqov):

tasdiqlangan reja-jadval asosida mahallalarda o‘tkaziladigan xatlov ishlariga jalb etilgan mas’ul xodimlarni ko‘chmas mulk obyektlariga kirish uchun sharoit yaratish, o‘lchov ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishiga, ularning xavfsizligini ta’minlashga ko‘maklashish;

fuqarolar tomonidan o‘lchov ishlarini amalga oshirishga qarshilik ko‘rsatish holatlarida ularga qonuniy tushuntirishlar bergan holda xatlovga jalb etilgan mas’ullarga amaliy yordam ko‘rsatish;

egasi aniqlanmagan ko‘chmas mulk obyektlarining egalariga oid ma’lumotlarga aniqlik kiritishga ko‘maklashish;

mahalla raisi, profilaktika inspektorlari, hokim yordamchilari va ko‘cha, mahalla faollarini jalb etgan holda, joylarda tashkil etiladigan sayyor qabullarda, uchrashuvlarda, ommaviy tadbirlarda fuqarolarga Qonunning mazmun mohiyatini to‘g‘ri tushuntirish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Xasanov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (I.Xoliqov) har oy yakuni bilan tasdiqlangan reja-jadval asosida mahallalarda o‘tkaziladigan xatlov ishlari holatini tanqidiy tahlil etgan holda hokimlik soati, apparat yig‘ilishlariga axborot kiritib borsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Xasanov), tashkiliy-kadrlar guruhi (X.Mirzoyev) har chorak yakuni bilan xatlov ishlariga mas’uliyatsizlik bilan yondoshgan rahbar va xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llash yuzasidan taklif kiritib borsin.

5. Tuman hokimligi Axborot xizmati (O‘.Mingboyeva) tumandagi ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlari orqali tasdiqlangan reja-jadval asosida mahalla fuqarolar yig‘inlarida o‘tkaziladigan xatlov jarayonlari olib borilishini muntazam ravishda, haftada bir martadan kam bo‘lmagan davriylikda yoritib borish belgilab qo‘yilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Xasanov zimmasiga yuklansin

Tuman hokimi **BOZOROV X.SH.**

Uzun tuman hokimining
2024-yil 13-noyabrdagi
374-8-118-Q/24-son qaroriga
1-ilova

O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish bilan bog‘liq masalalarni ijrosini ta’minlovchi tuman

ISHCHI GURUHI
TARKIBI

T/r	**F.I.Sh**		**Lavozimi**
1.	X.Bozorov	-	tuman hokimi - 1-sektor rahbari, *ishchi guruh rahbari*
2.	B.Boymurov	-	tuman prokurori - 2-sektor rahbari, *ishchi guruh rahbari o'rinbosari*
3.	O.Ergashev	-	tuman IIB boshlig‘i - 3-sektor rahbari, *ishchi guruh rahbari o'rinbosari*
4.	Sh.Qosimov	-	tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i - 4-sektor rahbari, *ishchi guruh rahbari o'rinbosari*
5.	I.Xoliqov	-	Kadastr agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i, *ishchi guruh rahbari o'rinbosari*
6.	B.Xasanov	-	tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, *ishchi guruh a’zosi*
7.	A.Sharipov	-	tuman Adliya bo‘limi boshlig‘i, *ishchi guruh a’zosi*
8.	T.Kucharov	-	O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i, *ishchi guruh a’zosi*
9.	M.Jo‘rayev	-	tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, *ishchi guruh a’zosi*
10.	Lavozimiga ko'ra	-	O‘zbekiston Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari tuman Kengashi raisi, *ishchi guruh a’zosi*
11.	M.Shodmonov		tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, *ishchi guruh a’zosi*
12.	A.Sariyev	-	tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i, *ishchi guruh a’zosi*
13.	Lavozimiga ko'ra	-	tuman sektor kotiblari

14.	S.Xo‘jamqulov	-	Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali boshlig‘i, *ishchi guruh kotibi*

Uzun tuman hokimining
2024-yil 13-noyabrdagi
374-8-118-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Xatlov jarayonlari yakunlangan mahalla fuqarolar yig‘ini bo‘yicha rasmiylashtiriladigan dalolatnomani tasdiqlovchi namunaviy ishchi guruhi

TARKIBI

T/r	F.I.Sh		Lavozimi
1.	*Lavozimiga ko'ra*		Mahalla fuqarolar yig‘ini raisi
2.	*Lavozimiga ko'ra*		Mahalla profilaktika inspektori
3.	*Lavozimiga ko'ra*	-	Mahalla soliq inspektori
4.	*Lavozimiga ko'ra*	-	Mahalladagi hokim yordamchisi
5.	*Lavozimiga ko'ra*	-	Kadastr yig‘ma jildlarni tayyorlash shu’basi kadastr muhandisi
6.	*Lavozimiga ko'ra*	-	Mulkdor yoki foydalanuvchi